

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Los Angeles, California, USA on February 10th, 2023.

www.conferencezone.org

O'QUVCHILARNI SINFDAN TASHQARI ISHLARGA JALB ETISH ORQALI MUSIQA VA SA'NAT SOXASIGA QIZIQTIRISH ASOSLARI

Nishonova Zilolaxon

Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani

5-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya

maqolada sinfdan tashqari olib boriladigan ishla va ularning mazmuni , turli xil to'garaklarni tashkil etish , musiqa va san'atshunoslikgga chiziqtirish kabi masalalar bayon etilgan .

Kalit so'zlar : yakka tartibdagi ehtiyoj, bo'sh vaqt, dam olish, ixtiyoriy, og'zaki, ko'rgazmali, amaliy, kasb, qobiliyat va hokazo.

Bugungi kunga kelib yosh avlodga ta'lim berish masalasi eng asosiy mezonlardan biri sanaladi . Shaxsga ta'lim berish , musiqa va san'atga oshno qilish ularni oxhilmagan qobiliyatlarini ochishga yordam ko'rsatish har bir pedagog hodimning masuliyatli ishi ekanligi barchamizga ayon , shundan kelib chiqib biz pedagog hodimlar o'quvchilarni nafaqat dars jarayonida balki , darsdan tashqari faoliyatlarida ham ularga ustozlik qilishimiz zarur. Sinfdan tashqari vaqlarda o'qituvchilar yoki chetdan taklif qilingan mutaxassislar o'quvchilar bilan turli xil ta'lim-tarbiya ishlarini olib boradilar. Bunday ishlar sinfdan tashqari ishlar deb ataladi. Sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan ishlar maktabda yoshlarni tarbiyalash tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu ishlardan o'quvchilar shaxsini kamol toptirish maqsadida keng foydalaniladi. Maktabdan tashqari ishlar maxsus tashkil etilgan muassasalar tomonidan uyuştirilgan ta'lim-tarbiya va madaniy oqartuv ishlaridan iboratdir. Bular ikki tipga bo'linadi: birinchisi, ko'p tarmoqli, ya'ni ko'p xil ishlarni o'z ichiga oladi. O'quvchi va o'smirlar saroylari, uylari, bolalar klublari, madaniyat uylaridagi bolalar sektorlari, bolalarning istirohat bog'lari, maydonchalari, yozgi lagerlari va boshqalar. Ikkinchisi tor tarmoqli muassasalar, ya'ni bir soha bo'yicha ta'lim-tarbiya va madaniy ishlar olib boriladigan muassasalar. Bolalar kutubxonalar, yosh tabiatshunoslik stansiyalari, bolalar texnika stansiyalari, bolalar teatrлari, bolalar ijodiy uylari, bolalar ekskursiya turistik bazalari, bolalar temir yo'llari, stadionlari kabilar. Sinfdan va maktabdan tashqarish ishlar o'ziga xos xususiyatlari bilan o'qish mashg'ulotlaridan farq qiladi. Bu ish ixtiyoriy asosda tashkil qilinadi. O'quvchilar

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Los Angeles, California, USA on February 10th, 2023.

www.conferencezone.org

o‘z qiziqish va layoqatlariga qarab turli to‘garaklarga yoziladilar, darsdan tashqari vaqtida o‘tkazilayotgan ommaviy va yakka tartibdagi ishlarda ham o‘z istaklari bilan qatnashadilar. Sinfdan va maktabdan tashqarish ishlarning yana bir xususiyati shundaki, bu ishda o‘quvchilarning mustaqil ishlari asosiy o‘rin tutadi. To‘garaklarda, sport jamoalarida, bolalar lagerlarida, maktab maydonchalarida mustaqil ishlar uchun imkoniyatlar yaratiladi. Sinfdan va maktabdan tashqarish ishlar darsda olib boriladigan o‘quv-tarbiya ishlarini mustahkamlaydi va to‘ldiradi, o‘quvchilarni pedagogik ta’sirga to‘la jalb etishga, dars uchun ajratilgan vaqt ichida amalga oshirish qiyin bo‘lgan ishlar amalga oshiriladi. Sinfdan va maktabdan tashqarish tarbiyaviy ishlar jarayonida mehnat va o‘quv mashg‘ulotlari bilan o‘yin kulgu, hordiq chiqarish tadbirlari o‘zaro muvofiqlashtirilishi kerak. Sinfdan va maktabdan tashqarish ishlardan ko‘zda tutilgan maqsad bolalarda turli sohalar bo‘yicha qiziqishlarni yuzaga keltirish, ularni rivojlanТИRISH va tarbiyalashdir. Bolalarning hayotini chinakamiga madaniy qilish ularni jamoa bo‘lib yashashga o‘rgatishdan iboratdir.

Sinfdan va maktabdan tashqarish ishlarni tashkil qilish shakllari quyidagicha:

- a) og‘zaki ish usullari (siyosiy axborotlar, majlislar, lineykalar, leksiyalar, dokladlar, kitobxonliklar, konferensiyalar, munozaralar, uchrashuvchi);
- b) ko‘rgazmali ish usullari (maktab muzeylari, turli sohaga oid albomlar majmuasi, urush va mehnat qaxramonlari badiiy ijod ko‘rgazmalari);
- v) amaliy ish usullari (poxodlar, ekskursiyalar, spartakiadalar, olimpiadalar va konkurslar, qizil iztoparlar harakati, texnika ijodi, yosh naturalistlar to‘garaklari, shanbaliklar va temurchilar harakati) va boshqlar.

Sinfdan va maktabdan tashqarish tarbiyaviy ishlar shakllari shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga qaratilganligi bilan ifodalanadi. Bu muammolarni ijobjiy hal qilish uchun sinfdan va maktabdan tashqari, tarbiyaviy ishlar tizimida quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- ulg‘ayayotgan inson shaxsini tarbiyada oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o‘smir yoki yoshning betakror va o‘ziga xosligini hurmatlash;
- milliylikning o‘ziga xos an’ana vositalariga tayanish;
- pedagoglar va o‘quvchilar orasidagi o‘zaro hurmat munosabatlarini shakllantirish. O‘quvchilarni aqliy, axloqiy, mehnat, jismoniy, nafosat, ekologik, huquqiy, iqtisodiy, ma’naviy jihatdan shakllangan kishilar qilib tarbiyalash dars jarayonida boshlanadi. Biroq o‘quvchilarning kundalik o‘sib borayotgan ehtiyojlari, qiziqishlarini faqat dars jarayonida olib borib bo‘lmaydi. Bunday ko‘p qirrali qiziqishlarni sinfdan va maktabdan tashqarish tarbiyaviy ishlar bilan uzviy

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Los Angeles, California, USA on February 10th, 2023.

www.conferencezone.org

bog‘lash asosidagi qondirish mumkin. Sinfdan va maktabdan tashqarish ishlar o‘quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to‘ldiradi. Ularning dunyoqarashini to‘g‘ri shakllantirishga, axloqiy kamol topishiga ko‘maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot, ishlab chiqarish bilan bog‘lashga zamin yaratadi.

Sinfdan tashqarish ishlarning tarbiyaviy ta’siri o‘quvchilar jamoasining xilma-xil ishlarini qanday yo‘lga qo‘yishlariga bog‘liqdir. Sinfdan tashqari faoliyat majburiy dastur bilan chegaralanmaydi, balki yoshlarni har xil o‘quvchilarni ixtiyoriy ravishda birlashtiradi. Ularning qiziqishlari, mayillari, tashabbusi asosida ishlarni amalga oshiradi, fanga qiziqtiradi, ularni xalqning madaniy hayoti muhitiga olib kiradi. Sinfdan tashqari ishlar shaxsdagi ijtimoiy faollik, ijtimoiy ong va axloq odatlarini tarkib toptirishning eng muhim omilidir. Bu faoliyat ilmiy jamoa, klub, adabiy va maktab teatrlarining ishlari, turli mavzularda o‘tkaziladigan kitobxonliklar konferensiyalari va munozaralari, siyosiy, axloqiy, ma’naviy, madaniy, ilmiy-ommabop va mehnat mavzularidagi ma’ruza va suhbatlar, ijtimoiy foydali mehnat, siyosiy axborot, bayram kechalari va ertaklari, to‘garak mashg‘ulotlarini o‘z ichiga oladi. O‘quvchilarning sinfdan tashqari ishlari o‘z mazmuniga ko‘ra tafakkur faoliyati va munosabat vositasi hisoblanadi. CHunki sinfdan tashqari ishlarda olingan axborot idrok etiladi, qayta ishlanadi va shu asosda yangi bilimlar hosil qilinadi. Maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar bolalarni ijodkorlikka da vat etuvchi tarbiyaviy maskandir. Pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, hozirgi sharoitda maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni olib boruvchi bolalar uylari, bolalar va yoshlar saroylari, yosh texniklar uylari, yosh tabiatshunoslar uylari muktab tarbiyasining davomi bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston Respublikasining «Sinfdan va maktabdan tashqarish tarbiyaviy ishlar konsepsiysi» bu ishlarni rejalashtiri, amalga oshirishda asos bo‘ldi. O‘quvchilar maktabdan tashqari ishlarda qatnashib turli kishilar bilan munosabatga kirishadilar, turli vaziyatlarga duch keladilar. Shuning uchun ham o‘quvchilarning maktabdan tashqari faoliyatları qanchalik xilma-xil bo‘lsa, ularning munosabatlari shunchalik boy, munosabat domrasi keng va ma’naviy o‘sish samarasi yuqori bo‘ladi. Ular orqali o‘quvchilar jamoada ishlashni o‘rganadilar, ijtimoiy mehnat quvonchini his qiladilar, ishlab chiqarish mehnatiga qo‘shiladilar, jamoatchilik fikriga bo‘ysinishga, jamoa sharafi uchun kurashishga odatlanadilar. Maktabdan tashqari faoliyat unda qatnashuvchilarning ma’naviy va jismoniy rivojlanishi hamda yosh xususiyatlariga ko‘ra belgilanadi. O‘quvchilarning ishlab chiqarish ilg‘orlari, atoqli kishilar bilan uchrashuvlari. O‘quvchilar biror voqeani uning o‘z ishtiroychilari og‘zidan eshitsalar, bu voqealarga g‘oyat katta

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Los Angeles, California, USA on February 10th, 2023.

www.conferencezone.org

taasurot qoldiradi. Vatan uurshi, afg'on urushining va O'zbekiston qaxramonlari, ishlab chiqarish ilg'orlari, olimlar, yozuvchilar, dehqon-fermer tadbirkorlari bilan uchrashuvlar tashkil etish axloqiy-siyosiy tarbiyaning eng samarali shakllaridir. Klublar – yoshlarning turli xil qiziqish, istak va xohishlarii qondirish, qobiliyatlarini o'stirishni ko'zda tutuvchi ommaviy-ixtiyoriy birlashmadir. Ularning to'garaklardan farqi faoliyat darajasining kengligi va ko'p qirraligidir. Bir klubda 10-15 ta to'garakni va ommaviy madaniy ishlarni tashkil etish mumkin.

Ilmiy to'garaklar – ularning asosiy maqsadi to'garak a'zolarining ma'lum o'quv faniga bo'lgan qiziqishlariga tayangan holda, ular bilimini kengaytirish, chuqurlashtirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish, mustaqil ishlarni o'rgatish hamda amaliy ko'nikmalar hosil qilishdan iboratdir.

O'lkani o'rghanish to'garagi – o'quvchilar o'z o'lkasiga, shahri, qishlog'i, tarixiga, xalq og'zaki ijodiga oid materiallarni to'playdilar, tegishli axborot va dokladlar tayyorlaydilar.

Maxsus to'garaklar – o'quvchilarni amaliy ko'nikma va bilimlar bilan qurollantiradi, kasb tanlashga bevosita yordam beradi.

Badiiy to'garaklar – adabiyot, musiqa, drama, tasviriy san'at, ganchkorlik, kashtachilik, zardo'zlik, do'ppisozlik kabilalar o'quvchilar o'rtasida badiiy havaskorlikni o'stirish, estetik didi va ijodiy qobiliyatlarini tarbiyalashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mohinur D. KREATIVLIK YANI IJODKORLIK VA BU BORASIDA NAZARIY QARASHLAR //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 63-65.
2. Mohinur, Djalolova. "KREATIVLIK YANI IJODKORLIK VA BU BORASIDA NAZARIY QARASHLAR." TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI (2022): 63-65.
3. Mohinur, D. (2022). KREATIVLIK YANI IJODKORLIK VA BU BORASIDA NAZARIY QARASHLAR. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 63-65.
4. Mohinur D., Rahimjon U. A STUDY OF MEMORY PROCESSES AND THEIR DEVELOPMENT IN PRESCHOOL //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – T. 5. – C. 62-65.

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Los Angeles, California, USA on February 10th, 2023.

www.conferencezone.org

-
- 5.Mohinur, Djalolova, and Usmanov Rahimjon. "A STUDY OF MEMORY PROCESSES AND THEIR DEVELOPMENT IN PRESCHOOL." Uzbek Scholar Journal 5 (2022): 62-65.
- 6.Mohinur, D., & Rahimjon, U. (2022). A STUDY OF MEMORY PROCESSES AND THEIR DEVELOPMENT IN PRESCHOOL. Uzbek Scholar Journal, 5, 62-65.
- 7.Yuldashev F., Yuldasheva M., Djalolova M. SOCIO-PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF FEELING STUDENTS'LONELINESS (case of Uzbekistan) //INTERNATIONAL JOURNAL OF EARLY CHILDHOOD SPECIAL EDUCATION. – 2022. – C. 10116-10122.
- 8.Yuldashev, F., M. Yuldasheva, and M. Djalolova. "SOCIO-PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF FEELING STUDENTS'LONELINESS (case of Uzbekistan)." INTERNATIONAL JOURNAL OF EARLY CHILDHOOD SPECIAL EDUCATION (2022): 10116-10122.
- 9.Yuldashev, F., Yuldasheva, M., & Djalolova, M. (2022). SOCIO-PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF FEELING STUDENTS'LONELINESS (case of Uzbekistan). INTERNATIONAL JOURNAL OF EARLY CHILDHOOD SPECIAL EDUCATION, 10116-10122.
- 10.Mohinur D. KREATIVLIK YANI IJODKORLIK VA BU BORASIDA NAZARIY QARASHLAR //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 63-65.
- 11.Mohinur, Djalolova. "KREATIVLIK YANI IJODKORLIK VA BU BORASIDA NAZARIY QARASHLAR." TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLLILI ONLAYN ILMIY JURNALI (2022): 63-65.
12. Mohinur, D. (2022). KREATIVLIK YANI IJODKORLIK VA BU BORASIDA NAZARIY QARASHLAR. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 63-65.
- 13.Джалолова М. А., Мамажонова Ш. К. O’SMIRLAR XULQIDA NOMOYISHKORLIK G’AYRATLILIK XUSUSIYATLARI TADQIQ ETISH METODOLOGIYASI: Djalolova 30.Mohinur Abdusattor qizi, Mamajonova Shohista Kamolovna, Farg’ona davlat universiteti psixologiya kafedrasи o’qituvchilari //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 6. – С. 287-292.
- 14.Джалолова, Мохинур Абдусатторовна, and Шохиста Камоловна Мамажонова. "O’SMIRLAR XULQIDA NOMOYISHKORLIK

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Los Angeles, California, USA on February 10th, 2023.

www.conferencezone.org

G’AYRATLILIK XUSUSIYATLARI TADQIQ ETISH METODOLOGIYASI:
Djalolova Mohinur Abdusattor qizi, Mamajonova 32.Shohista Kamolovna,
Farg’ona davlat universiteti psixologiya kafedrasi o’qituvchilari." Образование
и инновационные исследования международный научно-методический
журнал 6 (2022): 287-292.

15.Джалолова, М. А., & Мамажонова, Ш. К. (2022). O’SMIRLAR XULQIDA
NOMOYISHKORLIK G’AYRATLILIK XUSUSIYATLARI TADQIQ ETISH
METODOLOGIYASI: Djalolova Mohinur Abdusattor qizi, Mamajonova
Shohista Kamolovna, Farg’ona davlat universiteti psixologiya kafedrasi
o’qituvchilari. Образование и инновационные исследования международный
научно-методический журнал, (6), 287-292.

16Djalolova M., Karimov J. PSYCHOLOGICAL HEALTH AND ITS
FUNDAMENTALS //Conference Zone. – 2021. – C. 195-197.

17.Djalolova, M., and J. Karimov. "PSYCHOLOGICAL HEALTH AND ITS
FUNDAMENTALS." Conference Zone. 2021.

18.Djalolova, M., & Karimov, J. (2021, December). PSYCHOLOGICAL
HEALTH AND ITS FUNDAMENTALS. In Conference Zone (pp. 195-197).

19.Djalolova M., Nizomjon o’g’li Q. H. IJODIY QOBILIYAT
MUAMMOSINING JAHON PSIXOLOGLARI TOMONIDAN O
‘RGANILISHI //Conference Zone. – 2022. – C. 429-438.

20Djalolova, Mohinur, and Qodirov Hasanboy Nizomjon o’g’li. "IJODIY
QOBILIYAT MUAMMOSINING JAHON PSIXOLOGLARI TOMONIDAN O
‘RGANILISHI." Conference Zone. 2022.

21.Djalolova, M., & Nizomjon o’g’li, Q. H. (2022, December). IJODIY
QOBILIYAT MUAMMOSINING JAHON PSIXOLOGLARI TOMONIDAN O
‘RGANILISHI. In Conference Zone (pp. 429-438).